ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOVA KAMOLA KUDRATOVNA

VIRTUAL DISKURSNING LINGVOSEMIOTIK XUSUSIYATLARI (O‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

UO‘K: 811.512.133’42:004.738.5+811.111’42:004.738.5

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abctract of doktor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Axmedova Kamola Kudratovna
Virtual diskursning lingvosemiotik xususiyatlari (o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallari asosida).....3

Akhmedova Kamola Kudratovna
Linguosemiotical features of virtual discourse (based on materials from social network communication in Uzbek and English).....21

Ахмедова Камола Кудратовна
Лингвосемиотические особенности виртуального дискурса (на основе материалов из коммуникации в социальных сетях на узбекском и английском языках).....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ.....44

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOVA KAMOLA KUDRATOVNA

VIRTUAL DISKURSNING LINGVOSEMIOTIK XUSUSIYATLARI (O‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3186 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining www.urdu.uz hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ermetova Jamila Ismailovna** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xalilova Dilbar Jalilovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.). Tel.: (99862)224-67-00; faks(99862) 224-67-00; e-mail: www.fil-ik.urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A2588 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862)224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "9" noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "9" noyabr dagi 07 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.D.O'razboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.O.Masharipova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.O.Jumaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muloqot jarayonining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish hozirda dolzarb bo‘lgan masalalardan biri sanalib, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan bir paytda, virtual muloqot diskursi yangi tadqiqot obyekti sifatida maydonga kirib keldi. Muloqot jarayonidagi lisoniy imkoniyatlar davr bilan hamnafas ravishda o‘zida yangi ko‘rinish va xususiyatlar kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda lingvistik ilmiy tadqiqotlar qamrovi zamonaviy global axborot almashinuv jarayoni bilan hamohang tarzda ancha kengayib, o‘zbek va ingliz tillaridagi muloqot diskursiga xos bo‘lgan vositalarni chuqur o‘rganish, ularning lingvistik imkoniyatlarini tahlilga tortish hozirgi zamon tilshunosining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Internet yoki virtual muloqot murakkab ijtimoiy-kommunikativ jarayon sifatida diskursning turli ko‘rinishlarini o‘zida jamlaganligi bois aloqa-munosabatning ko‘p qirrali jihatlarini o‘zida namoyon etadi. Internet tarmoqlari hayotimizning ajralmas qismi sifatida barcha soha va yo‘nalishlarda mustahkam o‘rin egallamoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayoni og‘zaki va yozma nutqiy muloqot shakllarining qorishuviga asoslanib, u nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, psixologiya, sun’iy intellekt kabi fan tarmoqlarining ham tadqiqot markazidan joy olmoqda.

Ushbu yo‘nalishda o‘zbek tilshunosligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar faqat bir til, ya’ni o‘zbek tili doirasida olib borilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur tadqiqotimiz o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotining funksional-semiotik va lingvistik jihatlarini ochib berishga hamda ularni chog‘ishtirma aspektda tahlilga tortishga qaratilganligi ushbu dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Ma’lumki, onlayn muloqot jonli muloqot jarayonidan tubdan farq qilib, u o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Darhaqiqat, leksik birliklar bilan bir qatorda audio-vizual, interaktiv grafik belgilarning qo‘llanilishi virtual muloqotning semiotik jihatini ochib bersa, funksional-grammatik xususiyatlar esa lisoniy birliklarning morfologik va sintaktik tabiatida o‘z aksini topadi. Ushbu holatlar ham tadqiqot ishimizning zarurati va dolzarbligini belgilab beradi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yilning 21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektorda davlatimiz rahbarining “bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi…. Sun’iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular, avvalo, o‘zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarur”[1] , tarzidagi fikrlari ham biz uchun dastruilamal vazifasini o‘taydi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat

[1] https://president.uz/oz/lists/view/8582

dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni, “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son Qarori, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori, “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 2022-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 34-son Qarori, “Yoshlarni chet tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida muloqot diskursi masalalari bir qator olimlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, H.Haberland, N.Homski, M.Hallidey,Y.S.Kubryakova, M.Stabs, G.Kuk, N.D.Pavlova, V.I.Karasik, O.S.Issers, N.Volfson, T.van Deyk, D.Shifrin kabi bir qator tilshunos[2]larning ilmiy ishlari ushbu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda muloqot diskursi tushunchasi atroflicha muhokama qilingan.

Bugungi zamonaviy axborotlashgan kishilik jamiyatida muloqotning yangi ko‘rinishi sifatida maydonga chiqqan virtual yoki internet muloqoti tilshunoslar tomonidan ko‘plab bahs va munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu muloqot turi o‘zida lisoniy birliklar bilan bir qatorda audio-vizual grafik vositalarni qamrab olgani holda,

[2]Haberland H. Text, discourse: The latest report from the Terminology Vice Squad //Journal of Pragmatics, 1999. – 914 p.; Chomskiy N. Language and Mind. Published in the United States of America by Cambridge University Press. – New York, 2006. – P. 186; Haberland H. Text, discourse: The latest report from the Terminology Vice Squad // Journal of Pragmatics, 1999. – 914 p.; Halliday M.A.K. Learning how to mean. Explorations in the development of language. E.Arnold, 1975. - 164 p.; Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. - Москва: Институт научной информации по общественным наукам Российской академии наук, 2000. -161 с.; Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. Chicago, IL: The University of Chicago Press, 1983. – 279 p.; Cook, G. Discourse. -Oxford: Oxford University Press, 1989. – 165 p.; Павлова Н.Д. Дискурс: актуальные направления и перспективы психолингвистических исследований. Психологический журнал. РФ: Институт психологии РАН, Т. 39. -№ 6, 2018. – С. 16-26; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 435 с.; Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи: Автореф. дис. …д-ра филол. наук. – Екатеринбург, 1999. – 63 с.; Wolfson N, Perspectives in Sociolinguistics and TESOL. – Boston: Heinle and Heinle Publisher, 1989. – 319 p.; Дейк Т. ван. Анализ новостей как дискурса // Язык. Познание. Коммуникация. – Москва: Прогресс, 1989. – 161 с.; Schifrin Deborah. Discourse markers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 364 p.

muloqot diskursini yangi koʻrinishi sifatida shakllandi va tadqiqotchilar tomonidan oʻzgacha qiziqish bilan qarshi olindi.

Jumladan, D.Kristal, T.E.Grinberg, V.M.Goroxov, O.A.Djilina, E.N.Galichkina, A.A.Atabekova, Y.Y.Raspopova, Y.V.Gorina, Y.D.Igorevna, O.V.Lutovinova, S.V.Bondarenko, K.V.Ovcharova, Y.S.Pigina kabi tilshunoslar[3] virtual muloqot diskursiga xos xususiyatlar toʻgʻrisida oʻz ilmiy ishlarida batafsil ma'lumotlarni keltirib oʻtganlar.

Oʻzbek tilshunoslaridan M.Irisqulov, Sh.M.Iskandarova, M.Y.Mamajonov, Z.Pardayev, Sh.Safarov, A.Nurmonov, Oʻ.Sharipov, I.Yoʻldoshev, G.M.Saparbayeva va boshqa koʻplab tilshunos olimlar[4] oʻz tadqiqot ishlarida muloqot, muloqot diskursi, muloqot matni, muloqot akti mavzularining lingvistik xususiyatlari haqida fikr bildirishgan.

Aynan virtual muloqot tili borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga toʻxtalsak, Sh.Shahobitdinova, D.Popov, D.Rustamova, B.Abdullayev, Sh.Miralimova, D.A.Rustamov, M.S.Madaminova, R.R.Xalilova, A.Sh.Shukurov, L.Shukurillayeva, Z.Komilova va boshqa bir qancha tilshunoslar[5] oʻz ilmiy ishlarida muloqotning ushbu zamonaviy tendensiyasi xususida bir qator mulohazalarni keltirib oʻtishgan.

---

[3]Crystal D. A glossary of netspeak and textspeak. – Edinburgh University Press Ltd. 22 George Square, Edinburgh, 2004. – 196 p.; Горохов В.М., Гринберг Т.Е. Интерактивная журналистика: пут в будушее // От книги до интернета. Журналистика и литература на рубеже нового тисячелетия. Сборник научных трудов. - Москва: МГУ, 2000. – 256 с.; Жилина О.А. О влиянии компьютерных технологий на изменения в языке деловых документов // Преподавание и изучение русского языка и литературы в контексте современной языковой политики России. Сборник трудов конференции. –Н.Новгород, 2002. – 440 с.; Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках: Дисс. ... к. филол. н. - Астрахань, 2001. - 212 с.; Атабекова А.А. Лингвистический дизайн WEБ-страниц (сопоставительный анализ языкового оформления англо- и русскоязычных WEБ-страниц): Дисс. ... к. филол. н. – Москва: Изд-во РУДН, 2003. – 181 с.; Распопова Е.Ю. Дискурсивное пространство Интернет: основные дифференциальные признаки // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета, 2010.-№ 4.-С. 73-74; Горина Е.В. Дискурс интернета: определение понятия и методология исследования. - Тамбов: Грамота, 2014. – 65 с.; Ерофеева Дарьяна Игоревна. Особенности интернет-дискурса (Выпускная квалификационная работа) – Санкт-Петербург: Высшая школа, 2017. – 143 с.; Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса: Автореф. дис. … канд. филол. наук. - Волгоград: Перемена, 2009. – 43 с.; Бондаренко С.В. Социальная структура виртуальных сетевых сообществ: Дис… докт. социол. наук. –Ростов-на-Дону, 2004. – 181 с.; Овчарова К.В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функциональные и содержательные аспекты. Межвуз. сб. тр. молодых ученых. –Краснодар, 2004. Вып.1. - С. 108-110; Пигина Е.С. Смайлик как элемент эмоционального воздействия в организации общения в сети Интернет // Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2013. – № 11 (29): Ч. II.– С. 144-146.

[4] Mamajonov M.Y. Antroponimlar diskurs relevanti sifatida: Fil. fan. nomz. diss. – Farg'ona, 2020. – 151 b.; Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2013. – 169 b.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – 318 б.; Nurmonov A. Shakl va mazmun munosabati – lingvistik tadqiqotlar asosi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010. – 404 b.; Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 256 b.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.; Sharipov O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – 194 b.; Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 157 б.

[5]Shaxabitdinova Sh., Rustamov D., Popov D., Rustamova D., Abdullayev B., Miralimova Sh. Ommaviy lisoniy madaniyat. Jamoaviy monografiya. – Andijon: Step by step print, 2020. – 126 b.; Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik talqinlari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filol. fan. b. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoref. – Andijon, 2021. – 68 b.; Madaminova M.S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 101 b.; Xalilova Ruhsora Raupovna. Internet muloqotlarning pragmatik tamoyillari // "So'z san'ati" xalqaro jurnali. Vol 4| Issue 1. – Toshkent: Tadqiqot, 2021. – B. 114-115; Shukurov Akmal Shafarovich. Ijtimoiy tarmoq bugungi globallashuv davrida insoniyat ehtiyojlarini qondirish omillaridan biri sifatida // "Ijtimoiy tadqiqotlar" jurnali. Tom 3, №6. – Toshkent: Tadqiqot, 2020. – B. 108-110; Shukurillayeva L. "Leet speak" yoxud bugungi kunda qanday yozuvdan foydalanamiz? Lingvist (Ilmiy

O‘zbek tilida ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot diskursi masalalari, qolaversa, ushbu o‘ziga xos internet tilining funksional-semiotik va lingvistik imkoniyatlari o‘zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy yoki chog‘ishtirma aspektda monografik tarzda o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Ingliz tilini o‘rganishda chog‘ishtirma tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tarjimashunoslikning o‘rni” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi virtual muloqot diskursining funksional-semiotik va lingvistik xususiyatlarini o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq materiallari asosida chog‘ishtirma yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

virtual muloqot diskursining xarakterli xususiyatlarini tasniflash;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq diskursining funksional-semiotik imkoniyatlarini tarmoq materiallari asosida yoritib berish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqot diskursiga xos leksikaning virtual makonda qo‘llanilish holatlarini misollar asosida ko‘rsatib berish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallarini morfologik va sintaktik tadqiq qilish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti diskursining lingvistik tahlilini chog‘ishtirma aspektda tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq (Telegram va Facebook platformalari) muloqoti materiallari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallarining o‘ziga xosligini ta’minlovchi funksional-semiotik hamda lingvistik xususiyatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik(chog‘ishtirma), lingvostatistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

virtual muloqot diskursining jahon tilshunosligida umume’tirof etilgan nazariyalariga tayanib, o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotiga xos diskursiv belgi va tamoyillari belgilandi;

chog‘ishtirilayotgan tillarda muloqotning virtual shakliga xos semiotik vositalarning audio-vizual, interaktiv va intensiv imkoniyatlari dalillangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotida faol bo‘lgan til birliklarining adabiy til me’yorlaridan chekinish singari medialingvistik xarakteri aniqlandi;

virtual muloqot diskursining lingvistik tahlilini amalga oshirish orqali ijtimoiy tarmoqlardagi chog‘ishtirilayotgan tillar muloqot jarayoniga xos o‘xshashlik va tafovutlar aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

---

maqolalar to‘plami) III. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 81-82; Komilova Z. Internet tili va uslubi//Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515. Volume 2|Special issue 11|2023. – B. 216-220.

o‘zbek va ingliz tillaridagi virtual muloqot diskursining funksional-semiotik va lingvistik imkoniyatlarini tahlilga tortish asosida olingan amaliy natijalar hamda xulosalar, tadqiqot ishida foydalanilgan ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallari “Sotsiolingvistika”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” fanlari bo‘yicha nazariy manba yaratishdagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi;

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallarini chog‘ishtirilayotgan tillardagi funksional-semiotik va leksik-grammatik o‘ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy-nazariy mulohazalar turli tizimli tillarda internet tilining lingvistik jihatlarini tadqiq qilishda ilmiy manba bo‘la oladi;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi ijtimoiy tarmoq materiallarining adabiy tildan farqli xususiyatlarini o‘rganish orqali qo‘lga kiritilgan nazariy xulosa va ilmiy asoslardan “Sotsiolingvistika”, “Ingliz tili leksikologiyasi”, “Zamonaviy lingvistika” fanlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot materiallarining chog‘ishtirma tahlili asosida chiqarilgan xulosa va natijalarning ilmiyligi, hozirgi jonli muloqotda faol iste’molda ekanligi; respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy hamda ilmiy-uslubiy anjuman materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda va bir qator nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda chop qilingan maqolalar; tadqiqot ishi bo‘yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar asosida erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘zbek va ingliz tillari ijtimoiy tarmoq muloqoti materiallarini bir qator lingvistik metodlar asosida chog‘ishtirma tarzda tahlilga tortgan holda ushbu tillardagi virtual muloqotning kommunikativ hamda diskursiv xususiyatlari ochib berilganligi, chog‘ishtirilayotgan tillardagi internet muloqotining funksional-semiotik imkoniyatlari hamda leksik-grammatik tahlil asosida erishilgan natijalarning ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari uchun ilmiy manba sifatida xizmat qila olishi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, virtual muloqot matnlarining lingvistik metodlar asosida o‘tkazilgan tahlilidan erishilgan natijalardan oliy o‘quv yurti filologiya yo‘nalishi bakalavr va magistrantlariga sotsiolingvistika, zamonaviy lingvistika fanlaridan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari tashkil etishda, shuningdek, mazkur yo‘nalishlar doirasida darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Virtual muloqot diskursi va uning funksional-semiotik hamda lingvistik imkoniyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotida faol bo‘lgan til birliklarining adabiy til me’yorlaridan chekinish singari medialingvistik xarakteri borasidagi fikrlaridan ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi

amaliy loyihani (2024–2025-yy.) amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 25-martdagi 01-152-son ma’lumotnomasi). Natijada mobil ilovadagi nomlarni shakllantirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalarga tayanilgan. Jumladan, loyihada yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilining ijtimoiy tarmoq tili leksikasidagi funksional, kommunikativ, diskursiv xususiyatlari bilan bog‘liq masalalariga e’tibor qaratilgan, shuningdek, zamonaviy texnologik taraqqiyot bilan birga tilimizga kirib kelayotgan yangiliklar, unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi yangi leksik birliklar qatorining o‘zbek tili lug‘at fondida qanday aks etishi jihatlariga ahamiyat qaratilgan va dissertatsiyadagi umumiy xulosalarga tayanilgan;

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2022–2023-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada dissertatsiyada chog‘ishtirilgan tillarda muloqotning virtual shakliga xos semiotik vositalarning audio-vizual, interaktiv va intensiv imkoniyatlari borasidagi ilmiy natijalaridan foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 25-martdagi 01-151-son ma’lumotnomasi). Jumladan, o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotida faol bo‘lgan til birliklarining adabiy til me’yorlaridan chekinish singari medialingvistik xarakteri aniqlangan. Muloqot jarayonining elektron shakliga xos lingvosemiotik vositalarning audio-vizual, interaktiv va intensiv imkoniyatlari dalillangan;

virtual muloqot diskursining jahon tilshunosligida umume’tirof etilgan nazariyalariga tayanib ishlab chiqilgan o‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq muloqotiga xos diskursiv belgi va tamoyillariga oid tahlillardan “O‘zbekiston” teleradiokanali DMdagi “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Adabiy jarayon” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 17-dekabrdagi 04-36-1311-son ma’lumotnomasi). Natijada yuqoridagi dasturlar ssenariy materiallarini tayyorlash va boyitishda ushbu dissertatsiyada keltirilgan ma’lumotlar yangi manba bo‘lib xizmat qilgan;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining X yo‘nalishida belgilangan “Yangi, zamonaviy ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatidan samarali foydalanishga doir chora-tadbirlar” 68-bandi “Yoshlar o‘rtasida milliy-ma’naviy tarbiya hamda ezgu da’vatlarni qo‘llab-quvvatlash va turli illatlarga qarshi murosasizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq tanlovlar joriy etish va ularning muntazam o‘tkazib borilishini yo‘lga qo‘yish” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiyada virtual muloqot diskursining lingvistik tahlilini amalga oshirish orqali aniqlangan ijtimoiy tarmoqlardagi chog‘ishtirilayotgan tillar muloqot jarayoniga xos o‘xshashlik va tafovutlardan foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 24-dekabrdagi

10/237-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar virtual muloqot diskursining funksional-semiotik va lingvistik imkoniyati bo‘lgan leksika, uslub, belgi va yozuvni o‘zbek hamda ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq materiallari asosida chog‘ishtirma yoritib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 10 ta maqola, chunonchi, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, shuningdek, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy mohiyati ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Virtual muloqot diskursi lingvistik tadqiqot obyekti sifatida**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning “Tilshunoslikda diskurs tushunchasining tasnifi” nomli birinchi faslida diskurs yuzasidan jahon tilshunosligidagi lingvistik qarashlar, jumladan, Y.S.Kubryakova, V.A.Zveginsev, N.D.Arutyunova singari jahon tilshunosligi vakillarining diskurs hodisasi xususidagi mulohazalari, H.Haberland hamda M.Y.Dimarskiy kabi qator tilshunoslarning diskurs va matn tushunchalarining bir-biridan farqli ekanligi borasida bildirgan fikrlari, o‘zbek tilshunosligi namoyondalari Sh.Safarov, Z.Pardayev kabi tilshunos olimlarning diskurs xususidagi nazariyalari tadqiqi keltirilgan. Diskurs tushunchasi murakkab kommunikativ jarayonni anglatib, ilk bor amerikalik tilshunos olim Zellig Xarris tomonidan 1952-yilda nashr qilingan “Discourse analysis” deb nomlangan maqolada ishlatilgan[6].

Propozitsiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya, referensiya kabi diskurs nazariyasining muhim sanalgan tushunchalari borasida to‘xtalib o‘tilgan va bir qancha tilshunoslarning bu boradagi fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Shuningdek, og‘zaki va yozma diskurs grammatik, leksik, kontekstual jihatlardan farqlanib, yozma diskurs og‘zaki diskursga nisbatan ancha ochiqroq ko‘rinishda bo‘ladi. Chunki yozma diskursda tana harakatlari hamda imo-ishoralarni ifodalashning iloji yo‘q. Leksik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, og‘zaki diskursda

[6] Ablakulova O.U. Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi // Academic Research in Educational Sciences. Vol. 2| Issue 11, 2021. – B. 1168.

koʻproq olmoshlar, leksik takrorlar, birinchi shaxs murojaat birliklari va aktiv feʼllar yozma diskursga nisbatan koʻproq kuzatiladi. Yana boshqa jihatlarini tahlil qiladigan boʻlsak, ogʻzaki diskurs tuzilish va grammatik jihatdan aniq va toʻliq boʻlmaydi va gapda tugallanmagan qismlar nisbatan koʻp uchraydi. Shuningdek, soʻzlovchi suhbat mavzusiga toʻsatdan oʻzgartirishlar kiritishi mumkin hamda suhbatdoshlar bir-birining gapini boʻlish imkoniyatiga egalar. Ogʻzaki diskurs real vaqtda sodir boʻlganligi tufayli oʻzida koʻplab takrorlar, pauzalarni jamlagan.

Ogʻzaki, yozma va virtual muloqot jarayonlariga xos boʻlgan paralingvistik vositalar bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Ogʻzaki muloqot jarayonida turli xil mimik yoki kinetik, yozma muloqotda grafik, internet muloqotida esa tasviriy vositalardan unumli foydalaniladi. Onlayn muloqotga xos vositalar zamonaviy kompyuter texnologiyalarining matn yaratish jarayonidagi keng imkoniyatlarini inobatga olgan holda tasniflanadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Internet yoki virtual muloqot murakkab ijtimoiy kommunikativ jarayon sifatida”** deb nomlanadi. Har doim til va jamiyat oʻrtasida taʼsirlashuv jarayoni davom etadi. Bugungi zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning tilimizga boʻlgan taʼsiri esa, ayniqsa, eʼtiborlidir. Tilga boʻlgan bu kabi tashqi omillarning taʼsiri insonlar oʻrtasidagi muloqot jarayonida ham oʻz aksini koʻrsatmay qolmaydi.

Kommunikatsiya – inson va texnik vositalar, hayvonlar oʻrtasidagi aloqa-munosabat jarayoniga tegishli boʻlsa, muloqot insonlar oʻrtasida soʻzlar hamda harakatlar yordamida amalga oshiriladigan jarayon sanaladi. Virtual muloqot ushbu xususiyatlarning ikkalasini ham oʻzida jamlagan boʻlib, quyida virtual muloqot jarayonining bosqichlarini keltirib oʻtamiz:

- insonning vaqt va makon chegarasini chetlab virtual ravishda muloqot qilishga boʻlgan ehtiyoji;
- virtual muloqotdan koʻzlangan maqsadga mos ravishda kommunikativ makon (elektron pochta, ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimi va boshq.) hamda format (chat, elektron kutubxona, veb-sayt, internet doʻkon va boshq.)ni tanlash;
- muloqot aynan nima haqida borishini va muloqot vaziyatiga mos vositalarni belgilab olish;
- onlayn suhbatdoshning reaksiyasini kuzatib, izchil ravishda aloqani davom qildirish.

Virtual diskurs jarayonida kommunikantlar oʻzlari haqidagi axborot-maʼlumotlarni xohlaganlaricha uzatishlari mumkin. Hattoki muloqotning ushbu koʻrinishida oʻzi haqida yolgʻon maʼlumotlar berishi yoki haqiqiy maʼlumotlarni sir saqlashi ham mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi oʻzi xohlagan paytda ixtiyoriy tarzda muloqotga kirishishi, uni istalgan paytda tugatishi mumkin. Virtual muloqot jarayonida suhbatdoshlar oʻzlarini real hayotdagidan koʻra ancha erkin his qiladilar. Shuning uchun ham muloqot vaqtida oʻzlari xohlagan fikrlarini bemalol bildira oladilar. Onlayn muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilari oʻzlarini xohlagan rollarida koʻrishlari hamda real hayotdagidan oʻzgacha qiyofada gavdalanishlari mumkin.

Virtual muloqot jarayonida joʻnatilayotgan xabar moʼljaliga koʻra, shaxsiy yoki umumiy, yaʼni keng ommaga qaratilgan boʻlishi mumkin. Axborotni uzatuvchi

jo‘natayotgan xabarini yakka shaxsga mo‘ljallashi yoki bir vaqtning o‘zida uni bir guruh shaxslarga yuborishi mumkin.

Muloqot jarayoni murakkab ijtimoiy hodisa sanalib, o‘zaro muloqot kishilik jamiyati shakllanishining eng asosiy omili sanaladi. Har qanday faoliyat turi mobaynida kishilarda muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoj tug‘iladi. Bu jarayon ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bunda aloqa-munosabatning kommunikativ jihati alohida ahamiyat kasb etadi. Virtual muloqot jarayoni ham mashina vositasi orqali insonlar o‘rtasidagi kommunikativ va informativ mazmunlar uyg‘unligini aks ettiruvchi jarayon bo‘lib, lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishida o‘z aksini topadi.

Birinchi bobning uchinchi faslida virtual muloqot tili va diskurs belgilari haqidagi umumiy qarashlar keltirilgan bo‘lib, internet diskursining xarakterli jihatlari ochib berilgan.

Bugungi kunga kelib, juda qisqa davr ichida, internet eng ulkan axborot manbayi hamda butun insoniyat faoliyat yuritayotgan axborot almashish vositasiga aylangani – internetning o‘zbek segmenti tilining mavjudligi va o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish mavzusi bugungi kunda har jihatdan yangi bo‘lib, yaqin kelajakda u tilshunoslik tadqiqotlarida muhim o‘rinni egallashi aniqligini ko‘rsatadi[7].

Y.Raspopova internetning diskursiv tomonini murakkab semiotik tizim sifatida ta’riflab, uni turli xildagi diskursdan foydalanuvchilarni qamrab olish uchun strukturaviy jihatdan matn, rasm yoki ovoz shakllaridan tuzilgan, deb ta’kidlab o‘tadi[8]. Xususan, emotikon, emodzi, gif va memlar onlayn suhbatdoshlarning ruhiy kechinmalari, emotsional holati va kayfiyatini aks ettirishda keng qo‘llanilib, bu holat ko‘pchilik tomonidan an’anaviy muloqot jarayoniga zamonaviy va kreativ yondashuv sifatida baholanmoqda.

Virtual muloqot tiliga xos diskursiv belgilar uzatilayotgan axborot xususida qabul qiluvchida ma’lum bir tushuncha uyg‘otish, uning mazmunini to‘laqonli anglab yetishda alohida o‘rin tutib, muloqot jarayonida bir qancha vositalar orqali ifodalanishi mumkin.

Shu o‘rinda internet muloqotining diskurs belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tmoqchimiz:

- grafik vositalar (emotikon, emodzi, gif, mem)ning suhbatdosh kayfiyatini ifodalash maqsadida qo‘llanilishi;
- tezkor xabar almashish maqsadida turli abbreviaturalardan foydalanish (info, pls);
- raqam va harflar qorishuvidan hosil bo‘lgan omofonlardan foydalanish (L8, 7я);
- turli til yoki shevalarni qorishtirib qo‘llash(tabriklation).

Virtual muloqot diskurs belgilari tadqiqi ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayonini chuqurroq o‘rganib, uning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, muloqotning

[7] Rustamov D.A. Internet muloqotining o‘ziga xos jihatlari // So‘z san’ati xalqaro jurnali. – Toshkent: Tadqiqot, 2020, №3, - B. 214.

[8] Распопова Е. Ю. Дискурсивное пространство Интернет: основные дифференциальные признаки // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета, 2010. - № 4. - С. 73-74.

boshqa ko‘rinishlari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berish, diskurs tadqiqida yangi yo‘nalish sifatida baholanishi uchun muhim sanaladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Virtual diskursning funksional-semiotik tamoyillari va imkoniyatlarining chog‘ishtirma tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi faslida “Virtual muloqot shakli va uslubini belgilovchi diskursiv tamoyillar” haqida so‘z yuritiladi.

Kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqishdan ko‘zlangan dastlabki maqsad hisoblash jarayonlarini yengillashtirish hamda tezligini oshirish bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan insonlar kompyuterdan nutqning og‘zaki va yozma shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan kommunikativ muhitning yangi bir ko‘rinishi sifatida foydalana boshladilar.

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida xalqaro globallashuv jarayonining tezlashuvi natijasida internet muloqoti vositasi sifatida so‘zlashuv uslubining yozma shakli paydo bo‘ldi. Yozma so‘zlashuv nutqining dastlabki ko‘rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali qisqa xabar (sms – short message service) shaklida qo‘llangan bo‘lsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo bo‘lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi[9].

Internet makonda foydalanuvchilar fikr almashish, o‘rganish, o‘zlariga hamfikr maslakdosh topish kabi turli maqsadlarda virtual jamiyatlarda birlashadilar. Ular uchun umumiy jihat virtual makonda o‘zaro muloqot qurish sanalib, bu foydalanuvchilar birgalikda virtual makrojamiyatni tashkil qiladilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu jamiyat a’zolari bir-birlari bilan aloqa qilish uchun maxsus tildan foydalanishga harakat qilishadi. Shu asnoda “Leet speak” – yozuvning yangi shakli internet foydalanuvchilari orasida ommalasha bordi:

Б	6
Ж	>/<
Й	u*
Л	JI ёки /I
П	II ёки /7
Ф	qp ёки (I)
Ш	W ёки LLI
Щ	W, ёки LLL
Ъ	B
Э	-)
Ю	IO ёки 10
Я	9 ёки 9I

Leet ingliz tilida muloqot qiluvchilar orasida ancha keng tarqalgan bo‘lsa-da, aksariyat o‘zbek yoshlari nutqida ham ushbu yozuv shakliga xos unsurlarni kuzatishimiz mumkin.

Virtual makondagi muloqot jarayoniga xos nutq uslublariga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagi diskursiv tamoyillar asosida ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish ancha osonlashadi:

[9] Shaxabitdinova Sh., Rustamov D., Popov D., Rustamova D., Abdullayev B., Miralimova Sh. Ommaviy lisoniy madaniyat. Jamoaviy monografiya. – Andijon: Step by step print, 2020. – B. 38.

- har qanday muloqot matni ma’lum bir ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, uni to‘liq anglab yetish uchun, albatta, muloqot muhiti, sharoiti va maqsadi ma’lum bo‘lishi lozim;

- matn hamisha o‘ziga ma’lum bir funksiyani yuklaganligi bois u maslahat berish, undash, tahdid qilish, ko‘ngil ochish, axborot almashish kabi qator vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi;

- muloqot matni leksikoni o‘zida turlicha ma’no(adabiy, ramziy, kontekstual va boshq.) va ma’no ottenkalari(ijobiy, neytral, salbiy)ni ifoda etishi mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida ijtimoiy tarmoqlardagi yozma diskursning grafik, orfografik va punktuatsion xususiyatlari xususida fikr yuritilgan bo‘lib, virtual muloqot diskursida grafik, orfografik hamda tinish belgilar axborotni uzatish, qabul qilish uchun shaxslar o‘rtasida aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular biror voqea-hodisa, predmet yoki tushuncha o‘rnida qo‘llanibgina qolmasdan, balki muloqotchilardagi emotsional-ruhiy holat va kayfiyatni ham o‘zida aks ettira oladi.

Grafika tilimizdagi mavjud tovushlarni yozuvda ifodalovchi shakliy birliklarning maxsus tizimi hisoblanib, u onlayn muloqot jarayonida ma’lumotni uzatish hamda hissiy ifodani ochib berishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Virtual axborot almashishda quyidagi grafik vositalar keng qo‘llaniladi:

a) tinish belgilarni uslubiy talab asosida noan’anaviy qo‘llash;

b) shriftning hajmi va rangini o‘zgartirish, kursiv orqali ajratib ko‘rsatish;

c) yordamchi ramziy grafik belgilar: §, №, %, +, -, /, { }, &, $, *, = kabi[10].

O‘zbek tilining belgilangan orfografik qoidalari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik ushbu qoidalarga to‘laqonli bo‘ysunmaydi va nutq jarayonida, ayniqsa, onlayn muloqot shaklida bu vaziyat ancha keng kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarini kuzatar ekanmiz, nafaqat o‘zbek, balki boshqa til sohiblari ham imlo qoidalariga deyarli rioya qilmasliklarining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Ҳозирдан муштдак ўғлингга қараб “келажакда қайси мегажин ўғлимга эга чиқаркин” деяётган бўлсанг ТаБриКлаЙмаН 😻

Сенга ёмон қайноналик роли юкланяпти

Loding...

(Muhim tavsiyalar, 1.07.23)

Hello fans if you are from USA canada Italy france poland UK and you love me can I get a lovely message from you, remember that I love you all 💚💚❤️💋💯

(Selenagomezfanpage)

Turli yozuv vositalari orqali ko‘rsatib berish mumkin bo‘lmagan yoki murakkab bo‘lgan holat hamda munosabatlarni ifodalashda tinish belgilari o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta’minlashda benihoya zaruriy vositadir[11].

Ijtimoiy tarmoq sahifalarida keltirilgan xabarlarga berilgan sharhlar, chatlar imlo qoidalari, grafika, shuningdek, tinish belgilari bilan bog‘liq me‘yorlarni chetlab o‘tish

[10] Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik talqinlari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Andijon, 2021. – B. 28-29.

[11] Mahmudov N.M., Madvaliyev A.P., Mahkamov N. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. – B. 4.

holatlari tufayli kelib chiqqan bir qancha o‘ziga xos jihatlarni qamrab olar ekan, ulardan ba’zilari nafaqat onlayn, balki real yozma nutqda ham kuzatilmoqda. Bu holat so‘nggi yillarda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlar nutqida ancha ommalashmoqda. Buning natijasi insonlar, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida lingvistik savodsizlikka olib kelishi va keyinchalik aholi tomonidan normal holat sifatida baholanishi ham mumkin.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot diskursining funksional (audio-vizual, interaktiv va intensiv) imkoniyatlari” deb nomlanadi.

So‘zlovchi, tinglovchi hamda muloqot vaziyatini taqozo qiluvchi kommunikativ harakatga nisbatan nutqiy akt tushunchasi qo‘llanilar ekan, virtual makonda xabar uzatuvchi, xabarni qabul qiluvchi hamda xabar komponentlarini o‘zida jamlagan tushuncha virtual nutqiy muloqot akti sifatida qaralishi mumkin va u texnik vositalar orqali amalga oshirilganligi bois bilvosita aloqa sifatida qaraladi.

Ushbu muloqot ko‘rinishida adresatning nutqi shundayligicha emas, aksincha, ekspressiv hamda tasviriy shaklda yetkaziladi. Nafaqat verbal vositalardan, balki vizual til vositalaridan ham unumli foydalaniladi. Bundan maqsad, asosan, adresantda emotsional kayfiyat uyg‘otish va nutqiy muloqot samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi til vositalari suhbatdoshlarning muloqot jarayoni davomida bir-birlarini to‘liq anglashini ancha qulaylashtirib beradi. T.A.Bushuy va Sh.S.Safarovlar ta’kidlaganlaridek, muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o‘zining emotsional-ekspressiv funksiyasini bajarishga kirishadi[12].

Emotikon	Ma’nosi
:’-)	quvonchdan yig‘lagan
:’-(	qayg‘udan yig‘lagan
:-…	ko‘ngli singan
:-‹›	hayratda qolgan
:-\	bir qarorga kelolmayotgan
:-|	Befarq
:-@	Baqirayotgan
:-Q	Chekayotgan
:-D	Kulayotgan
;-)	ko‘z qisayotgan

Bu kabi emotikonlar soni g‘oyatda katta bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda eng keng tarqalganlari qatoridan yuqorida keltirilgan namunalar o‘rin egallaydi.

Internet foydalanuvchisi yuborilayotgan xabar mazmunini kuchaytirish, ta’sirchanligini oshirish maqsadida vizual vositalar(fotosurat, rasm yoki smayl)ni ilova qilib jo‘natadi. Demak, oddiy xabar matnida lisoniy ifoda bilan birga grafik yoki vizual ifoda adresant fikrini yetkazishda uyg‘unlashadi. Bu kabi turli toifadagi semiotik belgilar, ya’ni lingvistik va nolingvistik vositalar bilan boyitilgan matnlarda

[12] Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi: ilmiy nashr. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 21.

tasvirli va ko‘rgazmali komponentlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, matnni bir butun holda idrok etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega[13].

Hozirda internet foydalanuvchilarining aksariyati ushbu tarmoq funksiyalaridan keng foydalanishmoqda. Bu muloqot jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarning oldini olishi bilan birga vaqtdan va moliyaviy mablag‘lardan unumli foydalanish imkonini ham beradi. Biroq, shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizki, muloqot ishtirokchilarining texnik vositalari sifati, internet tezligi kabi omillar ham suhbat jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

